

UO‘K(UDC, УДК): 61:811.111

INGLIZ TIBBIY JARGONINING KOMMUNIKATIV VA XAVFSIZLIK JIHATLARI¹⁴

Turamuratova Sevara Botirovna

Urganch “RANCH” texnologiya universiteti

Magistratura talabasi

Xorazm, O‘zbekiston

E-mail: sevaraturamuratova87@gmail.com

ORCID ID: 0009-0009-7772-6081

ANNOTATSIYA

Tibbiyot amaliyotida ingliz tilidagi jargon, qisqartma va akronimlardan foydalanish ayrim muammoni keltirib chiqaradi: bir tomondan tezkor kasbiy muloqotni osonlashtirsa, boshqa tomondan bemorlarning tushunishini qiyinlashtiradi, klinik xavfsizlikka putur yetkazadi shuningdek, axloqiy muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu maqola ingliz tibbiy jargonining turli turlarini va ularning klinik muloqot hamda bemorlar natijalariga ta’sirini tahlil qiladi. Oddiy til yondashuvi va sog‘liqni saqlash savodxonligining tashkiliy tizimiga asoslanib, tadqiqot kommunikativ to‘siqlarni bartaraf etish strategiyalarini o‘rganadi. Bundan tashqari, maqolada jargonlarni boshqarish bo‘yicha amaliy tavsiyalar, jumladan JSSTning Qo‘shma komissiyaning “Foydalanish man etilgan” ro‘yxati kabi xalqaro standartlarga rioya qilish va avtomatlashtirilgan raqamli vositalarni joriy etish masalalari muhokama qilinadi. Dalillar shuni ko‘rsatadiki, nostandart atamalarni cheklash, hujjatlarda qisqartmalarni aniq izohlash va shifokor-bemor munosabatlarida soddalashtirilgan tilni qo‘llash klinik xavfsizlik va samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Xalqaro hamkorlik, teletibbiyot va ilmiy almashinuvda ingliz tilining global ustunligini hisobga olgan holda, jargonlarning keng tarqalishi muammosini hal qilish muhim zaruratga aylangan. Tadqiqot standartlashtirilgan tibbiy terminologiya va jargonning qiyosiy tahlili bilan yakunlanib, xavfsiz muloqot amaliyoti uchun dalillarga asoslangan takliflar taqdim etiladi.

KALIT SO‘ZLAR

Ingliz tili jargoni, tibbiy muloqot, bemorlar xavfsizligi, oddiy til, qisqartmalar, sog‘liqni saqlash savodxonligi.

Received: November 2, 2025

Accepted: November 27, 2025

Available online: February 25, 2026

¹⁴ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Turamuratova S. Ingliz tibbiy jargonining kommunikativ va xavfsizlik jihatlari. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 1(9) — B. 190-200.

COMMUNICATIVE AND SAFETY ASPECTS OF ENGLISH MEDICAL JARGON

Turamuratova Sevara Botirovna

*Master student of
Urgench Technological University “RANCH”
Khorezm, Uzbekistan*

E-mail: sevaraturamuratova87@gmail.com

ORCID ID: 0009-0009-7772-6081

ABSTRACT

In medical practice, the use of English slang, abbreviations, and acronyms presents a dual-natured challenge: while facilitating rapid professional communication, it simultaneously hinders patient comprehension, undermines clinical safety, and raises ethical concerns. This article analyzes various types of English medical jargon and their impact on clinical discourse and patient outcomes. Drawing on the Plain Language approach and the organizational framework of Health Literacy, the study explores strategies to mitigate communicative barriers. Furthermore, the paper discusses practical recommendations for jargon management, including adherence to international standards—such as The Joint Commission’s “Do Not Use” list and the integration of automated digital tools. Evidence suggests that limiting non-standard terminology, clarifying acronyms in documentation, and adopting simplified language in clinician-patient interactions significantly improve clinical safety and efficacy. Given the global predominance of English in international cooperation, telemedicine, and scientific exchange, addressing the proliferation of jargon has become a critical necessity. The study concludes with a comparative analysis of standardized medical terminology versus jargon, offering evidence-based proposals for safer communicative practices.

KEY WORDS

English slang, medical communication, patient safety, Plain Language, acronyms, health literacy.

ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ АНГЛИЙСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ЖАРГОНА В АСПЕКТЕ КОММУНИКАТИВНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Турамуратова Севара Ботировна

магистрант,

Ургенчский технологический университет «RANCH»

Хорезм, Узбекистан

E-mail: sevaraturamuratova87@gmail.com

ORCID ID: 0009-0009-7772-6081

АННОТАЦИЯ

В медицинской практике использование английского сленга, аббревиатур и акронимов представляет собой двойственное явление: способствуя быстрому профессиональному общению, оно одновременно затрудняет понимание пациентами, подрывает клиническую безопасность и вызывает вопросы этического характера. В данной статье анализируются различные типы английского медицинского жаргона и их влияние на клинический дискурс и результаты лечения пациентов. Опираясь на подход, основанный на использовании «простого языка» и организационную структуру концепции медицинской грамотности, исследование рассматривает стратегии преодоления коммуникативных барьеров. Кроме того, в работе обсуждаются практические рекомендации по управлению использованием жаргона, включая соблюдение таких международных стандартов, как список “Не использовать” Объединенной комиссии, и внедрение автоматизированных цифровых инструментов. Данные свидетельствуют о том, что ограничение нестандартной терминологии, расшифровка аббревиатур в документации и использование упрощенного языка во взаимодействии врача и пациента значительно повышают клиническую безопасность и эффективность. Учитывая глобальное доминирование английского языка в международном медицинском сотрудничестве, телемедицине и научном обмене, решение проблемы распространения жаргона определяется как критически необходимое. Исследование завершается сравнительным анализом стандартизированной медицинской терминологии и жаргона, предлагая научно обоснованные рекомендации по более безопасной коммуникативной практике.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Английский жаргон, медицинская коммуникация, безопасность пациента, простой язык, акронимы, здоровье-грамотность.

KIRISH

Jargon soʻzlar - bu muayyan kasb yoki ijtimoiy guruh doirasida qoʻllaniladigan maxsus ifodalar boʻlib, ular adabiy til lugʻatidan chetga chiqadi va keng omma uchun har doim ham tushunarli boʻlarmaydi. Ushbu tushunchaning etimologik va funksional taʼrifi quyidagicha:

“Zamonaviy lingvistikada jargonning asosiy funksional taʼrifi: maʼlum bir kasbiy yoki ijtimoiy guruh ichida muloqotni tezlashtirish va guruh aʼzolarining oʻziga xosligini taʼkidlash uchun ishlatiladigan ixtisoslashgan lugʻat.” Jargonning asosiy funksiyalari: kommunikativ (muloqot samaradorligi), identifikatsion (guruhga mansublikni belgilash) va kriptik (begonalardan maʼlumotni yashirish, garchi bu funksiya kasbiy jargonda kamroq boʻlsa ham).

Tilshunos olim O.Azizov tilning lugʻat tarkibidagi bunday soʻzlarni aktiv va passiv soʻzlar deb ataydi hamda aktiv soʻzlarga xalq har doim ishlatadigan eng kerakli soʻzlarni, passiv soʻzlar qatoriga esa eng kam isteʼmol qilinadigan soʻzlarni kiritadi. Olimning taʼkidlashicha, *“passiv soʻzlar soni aktiv soʻzlar sonidan kam boʻlsa ham, kishilarning bir-biri bilan boʻladigan kundalik oʻzaro munosabatida bunday soʻzlar juda kam ishlatiladi”*. Passiv soʻzlarni hammaning esda tutishi qiyin. Ammo ularning maʼnosi jumlada, kontekstda tushunarli boʻladi (Azizov O, 1963, 54).

S.Usmonov esa *“hozirgi oʻzbek tili leksikasidagi aktiv va passiv soʻzlar haqida toʻxtalar ekan, ularni kundalik turmushda qoʻllanishi odat boʻlib qolgan, yangilik xususiyatlari ham, eskirib qolganlik xususiyatlari ham boʻlmagan aktiv soʻzlarga va kishilar aloqasida unchalik ahamiyati boʻlmagan, kam ishlatiladigan passiv soʻzlarga”* boʻladi. Olim kasb-hunar leksikasi, terminlar, jargon va argolarni tilning ijtimoiy dialektal sostaviga kiritadi (Mirzaev M., Usmonov S. va boshqalar, 1970, 48).

Ingliz va oʻzbek tillaridagi jargon birliklarining tuzilishi va qoʻllanilish xususiyatlari, oʻzaro oʻxshashlik hamda farqlari, shuningdek, bir til jargonining ikkinchi tilga taʼsiri kabi muhim jihatlar hali toʻliq aniqlanmagan. Bu esa tarjima

jarayonida yoki madaniyatlararo muloqotda ba'zi tushunmovchiliklar kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

ASOSIY QISM

Zamonaviy tibbiyot jadal sur'atlar bilan rivojlanib, xalqaro hamkorlik va axborot almashinuvi orqali yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Bugungi kunda tibbiy adabiyotlar, klinik protokollar va ilmiy tadqiqotlarning katta qismi ingliz tilida yoziladi. Shu bois shifokorlar, talabalar va tibbiy xodimlar o'rtasida ingliz tiliga oid jargon, abbreviatura va akronimlardan keng foydalaniladi. Bu, bir tomondan, muloqotni soddalashtirib, vaqtni tejashga yordam bersa, ikkinchi tomondan, ba'zan turli talqinlarga sabab bo'lib, klinik xatoliklar xavfini ham keltirib chiqaradi (Cox C., Fritz Z., 2022, 2). Jumladan, sog'lik savodxonligi past bo'lgan aholi qatlamlarida tibbiy leksika va jargonni tushunish qiyinlashadi; bu voqeiy tashxisni anglash, davoga rioya qilish va qaror qabul qilishga salbiy ta'sir o'tkazadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) va Kasalliklarni nazorat qilish va profilaktika markazi (Centers for Disease Control and Prevention CDC) kabi tashkilotlar tibbiy axborotni oddiy, aniq va amaliy qilish uchun institutli yondashuvlarni (masalan, tashkilot darajasida sog'lik savodxonligi siyosatlari, materiallarni baholash indekslarini) tavsiya qiladi (WHO, 2024). Empirik tadqiqotlar bemorlar ko'p qo'llanadigan jargonni ham noto'g'ri talqin qilishini ko'rsatgan. Masalan, JAMA Network Open dagi tadqiqotda ("positive", "negative", "unremarkable", "impressive" kabi ifodalar) bemorlar tomonidan tez-tez teskari ma'noda tushuntirilgani aniqlangan (Gotlieb R., 2022, 4). Boshqa ishda esa, tibbiy qisqartmalarni yozma hujjatlarda avtomatik ravishda yoki post-xok tarzda to'liq yozish umumiy tushunishni 62% dan 95% gacha oshirgani ko'rsatilgan. (Liu L. G. va boshqalar, 2022, 3). Jargondan qochish zarurati bo'yicha klinik tavsiyalar va bemorni hurmat qiluvchi til haqidagi etik muhokamalar ham mavjud.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – tibbiy sohada qo'llaniladigan ingliz jargonining (professional terminlar, qisqartmalar va idiomalar) kommunikativ samaradorlikka ta'sirini baholash, uning xavf va muammolarini tahlil qilish hamda

standartlashtirish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

TADQIQOT METODLARI

Ushbu maqolada qiyosiy-tipologik, psixologik, sistem-struktur tahlil metodlariga murojaat qilindi. Xalqaro va mahalliy tibbiy manbalarda uchraydigan ingliz jargoni, abbreviatura va akronimlar yig'ildi. Tibbiy terminologiyani standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilotlar (Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO), Amerika tibbiyot assotsiatsiyasi(AMA), Sog'liqni saqlash va tibbiy xizmatni takomillashtirish milliy instituti(NICE) va boshqalar) tavsiyalari o'rganildi. Turli mamlakatlarda va tibbiy muassasalarda qo'llaniladigan jargon namunalari solishtirilib, bir xil abbreviaturaning turlicha ma'nolar olishi orqali yuzaga keladigan muammolar tahlil qilindi. Tibbiyot talabalari va amaliyotchi shifokorlar o'rtasida kichik so'rovnoma o'tkazilib, ularning ingliz jargonidan foydalanish tajribalari va qiyinchiliklari aniqlandi. Olingan ma'lumotlar yordamida jargonning o'quv va amaliyotdagi roli baholandi. Tibbiy muloqotda samaradorlik va xatolik ehtimoli o'rtasidagi muvozanat ko'rsatib o'tildi va tadqiqot natijalari asosida jargondan to'g'ri va xavfsiz foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Tibbiyotdagi ingliz jargoni turlari va ta'siri:

1. Abbreviaturalar (Abbreviations): So'zlarning qisqartirilgan shakllari.

Masalan:

- BP – Blood Pressure (qon bosimi)
- HR – Heart Rate (yurak urishi)
- IV – Intravenous (vena ichiga)
- OR – Operating Room (operatsiya zali)

2. Akronimlar (Acronyms): Bir nechta so'zning bosh harflaridan yaratilgan tushunchalar:

- CPR – Cardiopulmonary Resuscitation (yurak-o'pka reanimatsiyasi)
- MRI – Magnetic Resonance Imaging (magnit-rezonans tomografiyasi)

- AIDS – Acquired Immune Deficiency Syndrome (O‘rganilgan immun tanqisligi sindromi)

3. Qisqartma so‘zlar (Short forms/Slang): Ko‘proq og‘zaki muloqotda qo‘llaniladigan, norasmiy atamalar:

- Stat – darhol (lotinchadan “statim”)
- Labs – laborator tahlillar
- Med – medication (dorilar)

4. Simvolik yozuvlar (Symbols and shorthand): Yozma ravishda tezkor aloqa uchun ishlatiluvchi belgilar:

- ↑ (ko‘tarilgan) – yuqori
- ↓ (pasaygan) – past
- Rx – retsept, davolash
- Dx – tashxis

Ingliz jargonlarining tibbiyotdagi o‘rnini quyidagicha baholash mumkin:

1. Samaradorlik, tezkor yozish va o‘qish imkonini beradi. Xalqaro muloqot, turli mamlakat shifokorlari bir xil atamalardan foydalanib, oson tushunadi. Axborot almashish, maqolalar, tadqiqotlar va klinik protokollarni o‘rganishda yengillik yaratadi.

2. Tushunmovchilik xavfi, ya’ni ayniqsa talabalar yoki yangi mutaxassislar uchun. Turli talqinlar ehtimoli mavjud, bir xil qisqartmaning turli mamlakatlarda boshqa ma’noga ega bo‘lishi. Klinik xatolar, jargonni noto‘g‘ri anglash orqali tashxis yoki davolashda xatolikka yo‘l qo‘yilishi mumkin.

Tibbiyotda akronim va qisqartmalar (ED, MI, NPO, PRN, OD/OS va h.k.)dan foydalanishning ham ijobiy va bir vaqtning o‘zida salbiy oqibatlari yetarlicha. Jumladan, ijobiy tomonlaridan, tezkorlik, yozuvni qisqartirish, shifokorlararo anglashuv osonligi bo‘lsa, salbiy jihatlari esa akronimlar bemor/oila uchun tushunarsizlik kasb etadi, ba’zilar dozlash yozuvlarida chalkashish xavfini oshiradi (masalan, “QD” - har kuni - “QID” bilan adashtirilishi). Shuning uchun “Tibbiyot muassasalarida xizmat sifatini nazorat qilish va xatolarni qonuniy tartibga

solish” (The Joint Commission) shifoxonalar va klinikalarda xavfsizlikni ta’minlash maqsadida “Do Not Use” (Ishlatilmasin) deb nomlangan rasmiy ro‘yxatni joriy qildi; bu ro‘yxatga kiritilgan qisqartmalar tibbiy hujjatlarda qo‘llanilishi qat’iyan man etiladi. Shu bilan bir qatorda, ISMP (Xavfsiz dori-darmon amaliyoti instituti) farmatsevtika sohasidagi xatolar tahlili asosida xatoga moyil (chalkashuvga sabab bo‘ladigan) qisqartmalar ro‘yxatini ishlab chiqadi va tibbiyot texnologiyalari rivojlanishi bilan uni doimiy ravishda yangilab boradi.

Kasbiy sleng va evfemizmlar (“unremarkable”, “benign neglect”, “terminal event”) esa oddiy tildagi ma’nolaridan farq qiladi yoki ijobiy konnotatsiya uyg‘otadi. natijada bemor noto‘g‘ri xulosa qiladi. Shuningdek, qisqargan klinik iboralar (“We’ll keep you NPO”, “Your labs are unremarkable”) ham mavjud bo‘lib, ulardan foydalanish davomida bemor tushunmovchiligi, xavotir va qo‘rquv, ba’zan terapevtik munosabatga putur yetishi kabi qiyinchiliklarga duch kelinadi. Raqamli portalda yozuvlar ochiq bo‘lgan sharoitda ham tushunarsizlik saqlanadi. Mazkur holatda abbreviations qismini avtomatik ochib yozishni samarali usul sifatida ko‘rsata olamiz. Maxsus sohaviy jargon (kardiologiya, onkologiya, ortopediya va h.k.)lar qatorida ham murakkab terminlar talaygina, fikrimizcha, bemorga aytiladigan variantlar oddiy tildagi dublyor bilan ta’minlanishi kerak. Jumladan, “myocardial infarction (MI)” → “yurak mushagiga qon kelmay qolishi” - miokard infarkti kabi.

Kommunikativ, etik va huquqiy mezonlarga ko‘ra, shifokorlar sekin gapirish, oddiy va tushunarli tildan foydalanish, bemor tushunmagan joyini bemalol qayta so‘rashi uchun sharoit yaratishi muhim. Shuningdek, qisqartmalar va belgilar dori dozalash, yo‘riqnoma va yozuvlarda xatolar manbai bo‘lishi mumkin. “Do Not Use” ro‘yxatlari va xatoga moyil qisqartmalarni cheklash orqali xatolar kamayadi.

Sog‘lik savodxonligi va Plain Language: CDC va AHRQ materiallari axborotni oddiylashtirish, texnik terminga darhol oddiy ta’rif qo‘shish, Teach-Back usulidan foydalanishni tavsiya qiladi.

Izlanishlarimiz natijasi o‘laroq quyidagi amaliy tavsiyalarni taqdim etamiz:

1. Standartlashtirilgan jargondan foydalanish, ya'ni, xalqaro tashkilotlar (WHO, AMA, NICE va boshqalar) tomonidan qabul qilingan qisqartma va akronimlarni qo'llash. Norasmiy, mahalliy yoki shaxsiy jargonni rasmiy tibbiy hujjatlarda ishlatmaslik.
2. Tushuntirish va yozma izoh berish - birinchi marta ishlatilgan abbreviatura yoki akronim yonida uning to'liq shaklini ko'rsatish. Masalan: "CPR - Cardiopulmonary Resuscitation", "Your labs are unremarkable" → "Sizning tahlillaringiz odatiy me'yorda, xavotirli narsa topilmadi", "We'll keep you NPO after midnight" → "Tun yarimidan so'ng ovqat va ichimlik ichmasligingiz kerak", "The CT was negative" → "KT tekshiruvi muhim muammoni ko'rsatmadi", "Take this qd." → "Bu dorini har kuni qabul qiling" kabi.
3. Tibbiy ta'lim jarayonida o'rgatish. Talabalarga asosiy jargon turlari va ularning ma'nolarini tizimli ravishda o'rgatish. Noto'g'ri yoki turlicha talqin qilinishi mumkin bo'lgan qisqartmalarni alohida ko'rsatib berish.
4. Amaliyotda ehtiyotkorlik bilan qo'llash, ya'ni, yozma ravishda shifoxona kartalari, epikriz yoki retseptlarda noaniq qisqartmalardan qochish. Bir xil abbreviaturaning ikki xil ma'noga ega bo'lishi mumkinligini hisobga olish.
5. Texnologik vositalardan foydalanish. Elektron tibbiy tizimlarda (EMR/EHR) jargonlarning avtomatik to'liq shaklga aylanishi uchun maxsus dasturiy ta'minot joriy etish. Elektron lug'at va ma'lumotlar bazasidan tezkor tekshirish imkoniyatlarini yaratish.
6. Ilmiy ishlarda aniqlikni ta'minlash. Ilmiy maqolalar va hisobotlarda qisqartmalardan minimal foydalanish. Har bir qisqartmani birinchi marta keltirilganda to'liq izohlash.

XULOSA

Ingliz jargoni tibbiy jamoa ichida tezkor aloqaga xizmat qilsa-da, bemorga qaratilgan kommunikatsiyada Plain Language tamoyillari ustuvor bo'lishi shart. Tadqiqotlar jargonni cheklash va qisqartmalarni ochib yozish bemor tushunishini sezilarli yaxshilashini ko'rsatadi. Standartlar (The Joint Commission, ISMP) esa

xavfli qisqartmalarni minimallashtirishga yordam beradi. Tashkilot miqyosida sogʻliq savodxonligi siyosatini joriy qilish, EHR intervensiyalari va doimiy treninglar jargon muammosini tizimli hal qilishning ishonchli yoʻlidir. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy tibbiyotda ingliz jargonidan foydalanish kasbiy muloqotning ajralmas qismi hisoblanadi. U shifokorlar va tibbiy xodimlar oʻrtasida axborot almashishni tezlashtiradi, klinik qaror qabul qilish jarayonida vaqtni tejaydi hamda xalqaro hamkorlikda umumiy til sifatida xizmat qiladi. Biroq, jargonning turli talqinlari va notoʻgʻri qoʻllanilishi tibbiy xatolarga olib kelishi mumkin. Shu bois, uning afzalliklari bilan bir qatorda xavflarini ham hisobga olish zarur.

Ingliz jargonidan samarali foydalanish uchun uni standartlashtirish, taʼlim jarayonida tizimli oʻrgatish va tibbiy hujjatlarda aniqlikni taʼminlash muhim ahamiyatga ega. Bu nafaqat tibbiy muloqotni yengillashtiradi, balki bemor xavfsizligini taʼminlash va tibbiy xizmat sifatini oshirishga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. **World Health Organization.** Health literacy – Fact sheet. – Geneva: WHO, 2024.
2. **Centers for Disease Control and Prevention.** Plain language materials & resources. – Atlanta: CDC, 2025.
3. **Rimmer, A.** Doctors must avoid jargon when talking to patients, RCGP says // *BMJ*. – 2014. – Vol. 348. – P. g4131. – DOI: 10.1136/bmj.g4131.
4. **Cox C.; Fritz, Z.** Use of language that disempowers patients // *BMJ*. – 2022. – Vol. 377. – P. e066720. – DOI: 10.1136/bmj-2021-066720.
5. **Gotlieb R.** va boshqalar. Accuracy in patient understanding of common medical phrases // *JAMA Network Open*. – 2022. – Vol. 5, No. 12. – P. e2247875. – DOI: 10.1001/jamanetworkopen.2022.47875.
6. **Liu, L. G.** va boshqalar. Effect of expansion of abbreviations on patient understanding // *JAMA Network Open*. – 2022. – Vol. 5, No. 6. – P. e2218647. – DOI: 10.1001/jamanetworkopen.2022.18647.

7. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. – T.: O‘qituvchi, 1963.
8. Mirzaev M., Usmonov S., Rasulov I. O‘zbek tili. – T.: O‘qituvchi, 1978.

REFERENCE

1. World Health Organization. (2024). *Health literacy – Fact sheet*. WHO.
2. Centers for Disease Control and Prevention. (2025). *Plain language materials & resources*. CDC.
3. Rimmer A. (2014). Doctors must avoid jargon when talking to patients, RCGP says. *BMJ*, 348, g4131. <https://doi.org/10.1136/bmj.g4131>
4. Cox C., & Fritz Z. (2022). Use of language that disempowers patients. *BMJ*, 377, e066720. <https://doi.org/10.1136/bmj-2021-066720>
5. Gotlieb R., et al. (2022). Accuracy in patient understanding of common medical phrases. *JAMA Network Open*, 5(12), e2247875. <https://doi.org/10.1001/jamanetworkopen.2022.47875>
6. Liu, L. G., et al. (2022). Effect of expansion of abbreviations on patient understanding. *JAMA Network Open*, 5(6), e2218647. <https://doi.org/10.1001/jamanetworkopen.2022.18647>
7. Azizov O. (1963). Introduction to Linguistics. T.: Teacher.
8. Mirzaev M., Usmonov S., Rasulov I. (1978). Uzbek Language. T.: Teacher.